

XITOI ILMIY FANTAST YOZUVCHISI HE XI 何夕 NING “YOVVOYI MAKON” 《 异域》 QISSASIDA ILMIY G'OYA VA BADIY TASVIR UYG'UNLIGI

Nigina Rasuleva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD

nigina1114@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21771036>

Annotatsiya

Mazkur maqolada He Xi 何夕 ning “Yovvoyi makon” qissasida ilmiy g'oyalar va badiiy tasvir vositalarining uyg'unligi tahlil qilinadi. Qissada ilmiy-fantastik konsepsiyalar, kosmik makon talqini hamda inson va boshqa sivilizatsiyalar o'rtasidagi munosabatlarning badiiy ifodasi yoritiladi. Qolaversa, muallifning ilmiy tafakkurni falsafiy mushohada va estetik tasvir bilan uyg'unlashtirishdagi mahorati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy xitoy ilmiy fantastikasi, He Xi 何夕, “Yovvoyi makon” 《异域, qissa, kosmik makon, falsafiy tafakkur, badiiy tasvir.

He Xi 何夕 —Xitoy ilmiy fantastik adabiyotining mashhur adiblaridan biri bo'lib, asarlarida ilmiy texnologiya, falsafiy mushohada va inson xarakterini chuqur tahlil qilishi bilan ajralib turadi. U 1990-yillardan boshlab Xitoy ilmiy fantastikasining “ikkinchi avlodi” vakillari qatorida tanilgan va Liu Cixin 刘慈欣, Han Song 韩松 hamda Wang Jinkang 王晋康 kabi yozuvchilar bilan bir qatorda zamonaviy Xitoy ilmiy fantastikasining rivojiga muhim hissa qo'shgan adiblardan sanaladi.

U oliygohda texnik yo'nalishda tahsil olgan va bir necha yillar muhandislik sohasida faoliyat yuritgan. Aynan shu ilmiy-texnik tajriba uning asarlarida ilmiy asoslarning ishonchli yoritilishiga xizmat qiladi.

He Xi 何夕 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab ilmiy fantastik hikoya va qissalar yoza boshlagan. Uning asarlari muntazam ravishda Xitoyning eng nufuzli ilmiy fantastika jurnali — Science Fiction World 《科幻世界》 da nashr qilingan. Aynan shu jurnallardagi ijod namunalari orqali u keng kitobxonlar ommasiga tanilgan. He Xi 何夕 ko'proq qissa (中篇小说) va hikoya (短篇小说) janrida ijod qiladi. Uning asarlarida yirik kosmos janglardan ko'ra, ilm-fan taraqqiyotining inson taqdiri, jamiyatga inson axloqi ta'siri markaziy o'rin egallaydi.¹

He Xi 何夕 adabiy uslubida inson qalbining ichki iztiroblariga, ilm-fanning axloqiy chegaralariga, texnologiyaning inson hayotiga ta'siriga, shaxsiy tanlov va mas'uliyat masalalariga keng e'tibor qaratiladi. Shu bois adabiyotshunoslar uning ijodini “gumanistik ilmiy fantastika” (人文科幻) yoki “psixologik ilmiy fantastika” yo'nalishiga mansub deb baholaydilar. Uning asarlarida ilmiy fantastik g'oya hech qachon o'z-o'zicha maqsad emas balki, u inson tabiati, axloq va jamiyat haqidagi falsafiy mulohazalarni ochib berish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

He Xi ning 何夕 “Yovvoyi makon” 《异域》 asari- ijtimoiy-falsafiy ilmiy fantastik qissa hisoblanadi. Qisqa tashqi tomondan ilmiy fantastika bo'lib ko'rinsa-da, ichki mohiyatida hozirgi

¹ 陈果.新生代科幻小说的现代性反思[D].长沙: 湖南师范大学, 2016.

zamon insoni va uning qiyofasi, axloqiy munosabatlarini va jamiyatiga oid chuqur savollarni ko'taradi. Qissada insoniyat oziq-ovqat muammosini hal qilish uchun "vaqt o'lchovini saqlash tamoyili" asosida yaratilgan Ximai 西麦- o'ziga xos sun'iy olamni tasvirlaydi. Bu fermada vaqt insonlar dunyosidagi vaqtdan 40 ming barobar tezroq o'tadi, bu esa ferma tomonidan doimiy ravishda insoniyatni oziq-ovqat bilan ta'minlash imkonini beradi. ²Ammo shu bilan birga, fermadagi biologik hayotning evolyutsiyasi ham juda tezlashadi va natijada inson darajasidagi "yovvoyi maxluqlar" paydo bo'ladi. Bu roman, asosan, ilm-fan va texnologiyaning o'zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan nohush qator etik-axloqiy burulishlar va kutilmagan oqibatlariga e'tibor qaratadi. Shubhasiz, texnologiya rivojlanishining asl maqsadi insonning taraqqiyoti va rivojlanishiga yordam berishdir. Ammo qissada urg'u berilishicha zamonaviy texnologiyaning rivojlanishi bilan uning salbiy oqibatlari ta'siri insoniyatning nazoratidan chiqib ketishi kuzatiladi. Bu holat texnologiyaning rivojlanish natijalari nazoratini insoniyat qanchalik o'z qo'lida tutib qolishiga qodir ekanligi borasida jiddiy shubhalarni keltirib chiqarmoqda. Texnologiya izlanishlarining chegarasi aslida bormi? ³ Agar bo'lsa, u qaysi ma'no darajasida mavjud? Va bu chegara insonlar ma'naviyati, etikasiga qanchalik bostirib kiradi He Xining 何夕 "Yovvoyi makon" 《异域》 qissasida olim Lan Jiangshui 蓝江水 tilidan o'zining ilmiy chegaralar haqidagi tushunchasini quyidagicha ifodalaydi: "Ilmiy kashfiyotchi nima uchun o'z sirlarini chuqur yashirib qo'ygani? Yadro sintezi nima uchun faqat bir necha million daraja yuqori haroratda sodir bo'ladi? Nima uchun mikro zarralar o'z ichki tuzilishini insoniyatga faqat yuz minglab yoki hatto trillionlab elektron-volt energiyada to'qnashganda namoyon qiladi? Tasavvur qiling, agar yuqoridagi reaksiyalar oddiy sharoitlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lganida, unda tosh asri yoki bronza davridagi insonlar, hatto o't bilan o'ynagan qadimgi maymun ham bu dunyoni yo'q qilib yuborgan bo'lardi. Hatto hozir ham insoniyat hamma narsani mutlaq xavfsizlik bilan boshqarishga to'la kafolat bera olishiga kim ishonch bilan javob bera oladi?" ⁴

Tadqiqotimiz jarayonida, yozuvchi He Xi 何夕 texnologiyaning rivojlanishiga nisbatan inson borlig'i, uning axloqiy-etik qiyofasi ta'siriga doimo shubha bilan qarashini aniqladik. Texnologiya yordamida insoniyatning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Ammo ilm-fan qudrati insoniyatni, uning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini yo'q qilishga qodir ulkan qurolga ham aylanishi mumkin. Texnologiya va uning hosilalari insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarini kengaytirib, jamiyatning rivojlanishiga ulkan turtki beradi. Ammo insoniyat jamiyati texnologiyaning salbiy oqibatlarga qanchalik qarshi turishiga ishonch va shubha masalasi hamon ochiq qolmoqda.

“当一切都由系统决定时，

人类只是被妥善安置的变量。

技术并没有拯救人。

² <https://www.chinawriter.com.cn>

³ 何夕.达尔文陷阱[M].成都：四川科学技术出版社，2011.

⁴ 牛艳芳.我国科幻文艺大众传播渠道研究[D].大连：大连理工大学，2011.

它只是取消了人的存在意义。”⁵

“Hammasini tizim hal qiladigan bo'lsa, inson shunchaki ehtiyotkorlik bilan joylashtirilgan o'zgaruvchiga aylanadi. Texnologiya insonni qutqarmadi- u faqat inson mavjudligining ma'nosini bekor qildi.”

Qissadan keltirilgan mazkur misol orqali, muallif texnologiyani inson subyekti o'rnini egallagan kuch sifatida, erkinlikni emas, ma'nosiz osoyishtalikni taqdim etuvchi vosita sifatida, taraqqiyot ostida insonni funksiyaga aylantiruvchi mexanizm sifatida ko'rsatganiga guvoh bo'ldik. Yozuvchi texnologiyani yovuz deb atamaydi, balki inson qaror qabul qilishdan voz kechganda texnologiya xavfli bo'lishini ko'rsatadi.

He Xi 何夕 mazkur asar orqali bir necha muhim ilmiy va falsafiy masalalarni ko'taradi:

1. Ilm-fan va ma'naviyat

Qissa ilmiy ixtironing o'zi xavfli emasligini, lekin undan qay usulda foydalanish mas'uliyati inson zimmasida ekanligini ko'rsatadi.⁶

2. Evolyutsiyaning nazorat qilib bo'lmaydigan jihati

Inson evolyutsiyaning boshqarishga urinadi, ammo tabiiy rivojlanish o'z qonunlariga ega ekanligi aks etadi.

3. Insoniy markaziylik tanqidi

Asarda inson “tabiat hukmdori” sifatida emas, balki evolyutsiyaning oddiy bir qismi sifatida tasvirlanadi.⁷

4. Ekologik javobgarlik

Tabiat qonunlariga sun'iy aralashish kutilmagan ekologik oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Bu masalalarning barchasi hozirgi kundagi asosiy muammolardan biri bo'lib, yozuvchi bir necha yil avval bu haqida yozgan.

Qissaning badiiy xususiyatlari haqida gapirganda, adib bu asarida biologiya va evolyutsiya nazariyasini ilmiy fantastika bilan uyg'unlashtirgan. Vaqt tushunchasini syujetning asosiy harakatlantiruvchi vositasiga aylantiradi, murakkab psixologik tasvirlardan foydalanadi, sarguzasht va falsafiy mushohadani birlashtirib ijod qiladi.

Xulosa qilib aytganda, He Xining 何夕 “Yovvoyi makon” 《异域》 qissasi ilmiy tafakkur va badiiy tasvirning o'zaro uyg'unlashuvi bilan farqlanib turadi. Adib ilmiy-fantastik konsepsiyalarni falsafiy mantiqiylik va badiiy obrazlar yordamida yoritib, kitobxonni insoniyat kelajagi, koinot va shaxslararo munosabat haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Asar Xitoy zamonaviy ilmiy fantastikasining badiiy-g'oyaviy salohiyatlarini namoyon etuvchi muhim namunalardan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

⁵ <https://www.chinawriter.com.cn>

⁶ 毛寅. 中国新生代科幻作家研究[D].兰州: 兰州大学, 2011.

⁷ 毛寅. 中国新生代科幻作家研究[D].兰州: 兰州大学, 2011.

1. 毛寅. 中国新生代科幻作家研究[D].兰州: 兰州大学, 2011.
2. 牛艳芳. 我国科幻文艺大众传播渠道研究[D].大连: 大连理工大学, 2011.
3. 廖晓波. 中国新生代科幻作家灾难题材写作研究[D].长沙: 湖南大学, 2015.
4. 陈果. 新生代科幻小说的现代性反思[D].长沙: 湖南师范大学, 2016.
5. <http://www.wanfangdata.com.cn/>
6. <https://www.chinawriter.com.cn>